XALQ DEPUTATLARI ZAFAROBOD TUMAN KENGASHI QARORI

2023 - yil 6 - noyabr VI-60-103-3-50-K/23 Zafarobod tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish to‘g‘risida

Tuman mahalliy budjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan mablag‘ yo‘naltirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, “Budjet kodeksi”ning 126-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasining 2023 yil “31” – oktabrdagi 02-116 - sonli xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarovga, tuman mahalliy budjetining 2023 yil 3-chorak yakuni bilan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan:

- “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari harajatlarini moliyalashtirish maqsadida 198 000 000 (bir yuz to‘qson sakkiz million) so‘m mablag‘ni «Ayollar daftari» jamg‘armasiga;

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 222 000 000 (ikki yuz yigirma ikki million) so‘m mablag‘ni «Yoshlar daftari» jamg‘armasiga;

- “Ochiq budjet” axborot portali orqali g‘olib deb topilgan loyihalarini moliyalashtirish maqsadida 396 000 000 (uch yuz to‘qson olti million) so‘m mablag‘ni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga;

- moddiy yordam va ko‘makka muhtoj ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 198 000 000 (bir yuz to‘qson sakkiz million) so‘m mablag‘ni “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasiga;

- Jizzax tumanlararo sudining 30.01.2023 yildagi №4-1301-2203/6410-sonli Ijro varaqasidagi mablag‘ni to‘lab berish uchun 5 000 000 (besh million) so‘m mablag‘ni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga;

- Tibbiy-sanitariya xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yaxshilash, sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlari, ayniqsa birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi PQ-4666-sonli qarori ijrosini taminlash maqsadida RShTYoM ning klinik ordinaturasi, terapiya mutaxassisligi talabasi Sanaqulov Sanjar Sirojiddinovichning kontrakt to‘lovi uchun 35 000 000 (o‘ttiz besh million) so‘m mablag‘ni tuman xokimligiga;

- "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt va butalarni sotib olish harajatlari uchun 82 000 000 (sakson ikki million) so‘m mablag‘ni tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga;

- “Samarqand” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida fuqarolar xavfsizligini ta’minlash maqsadida kuzatuv kameralar o‘rnatish harajatlari uchun 25 000 000 (yigirma besh million) so‘m mablag‘ni tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga;

- tumandagi kam ta’minlangan oilalar fuqarolari va keksa yoshdagi nuroniylarni sayohatga olib borish transport harajatlari uchun 9 000 000 (to‘qqiz million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- ko‘rgazmali bannerlar yasatish uchun 25 000 000 (yigirma besh million) so‘m va boshqa harajatlar uchun 45 000 000 (qirq besh million) so‘m hamda A.Navoiy hiyobonidagi O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘ini o‘rnatish harajatlari uchun jami 20 000 000 (yigirma million) so‘m jami 90 000 000 (to‘qson million) so‘m mablag‘ni tuman hokimligiga;

- Zafarobod tumani “Samarqand” mahallasida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish ishlarini tizimli joriy etish va amalga oshirishda zarur bo‘lgan qurilish asbob uskunalari va materiallari harid qilish uchun 120 000 000 (bir yuz yigirma million) so‘m mablag‘ni tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi S.Abduazimov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarov, tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i F.Kazakbaev va “Mahalla” xayriya jamoat fondi tuman bo‘linmasi bosh hisobchisi T.Usmonovlarga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

4. Zafarobod tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i v.b A.Do‘stnazarov ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (U.Ravshanov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. J.Adilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O'.Raxmanov**